

INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY



Scopus || Electronic journal specializing in Scopus

ISSUE 10



Acceptance of papers **October, 2025**



Acceptance of papers

Published monthly



Topics

economics, technology, social sciences

ISSN 3060-5229



Digital Object Identifier



Visit the website t.me/scopus_IST2100



EDITOR-IN-CHIEF:

Mirzaliev Sanjar Makhmatjon ugli

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Makhmudov Nosir Makhmudovich
DSc., Prof., Academician

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli – Senior
lecturer at TSUI

THE SCIENTIFIC-POPULAR ELECTRONIC
JOURNAL **"INNOVATION SCIENCE AND
TECHNOLOGY"** HAS BEEN REGISTERED
UNDER THE NUMBER **C-5669633** BY THE
AGENCY FOR INFORMATION AND MASS
COMMUNICATIONS (AOKA) OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN, EFFECTIVE
FROM OCTOBER 9, 2024.

CONTACTS

Phone: **+998 50 737 87 88**

Website: <https://ist-journal.uz>

Email: innovationist2025@gmail.com

The scientific electronic journal "Innovation Science and Technology" has been included in the list of scientific publications recommended for the publication of main scientific results of dissertations for the award of PhD and DSc degrees in economics and technical sciences, in accordance with the Resolution No. 370 of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan, dated May 8, 2025.

Editorial board:



Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,
Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor



Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor



Cham Tat Huei,
Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)



Muhammad Imran Sadiq
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
Professor, Malaysia



Ahmed Aziz Ismail
Doctor of Technical Sciences (DSc),
Professor (Egypt)



Lee Chin
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
(Malaysia)



Asongu Simplicé
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
Cameroon



Rui Dang
Doctor of Chemistry (DSc), Professor, China



Zahoor Ahmed
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Turkey



Shujaat Abbas
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Russia



Tina A Coffelt
Doctor of Philosophy in Educational Sciences
(PhD), USA



Judy B. Smetana
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), USA

CONTENTS

WAYS TO EXPAND THE COMPANY'S POSITION IN THE FURNITURE MARKET	6
Musayeva Shoirazimovna	
DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM OF MEDICINAL PLANT PROCESSING	11
Usmonov Mirgulom Khoshim o'g'li	
POLITICAL RELATIONS BETWEEN AZERBAIJAN AND UZBEKISTAN: HISTORY, CHALLENGES, AND PROSPECTS	17
Naila Ramazanova	
ANALYZING THE SUSTAINABILITY OF REGIONAL ECONOMIES USING MULTI-CRITERIA INDICES AND MODEL OPTIMIZATION	23
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
ECONOMIC ADVANTAGES OF MODERNIZING THE EDUCATION SYSTEM THROUGH INNOVATIVE TECHNOLOGIES	28
Rakhmatkhodjayev Akhrorhodja Akmal ugli	
XORIJIY MAMLAKATLAR KORPORATIV BOSHQARUV VA INNOVATSION RIVOJLANISH MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	34
Ismailov Allayor Rashidovich	
DIGITALIZATION OF FOREIGN EXCHANGE DIFFERENCE ACCOUNTING: CHALLENGES AND PROSPECTS IN EMERGING ECONOMIES	41
Pulatov Sirojbek, Misirov Kamoldin	
ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАНЫ	47
Ташмухамедова Яйра Атхамовна	
MAIN MEASURES TO STRENGTHEN EMPLOYMENT STABILITY AND IMPROVE EMPLOYMENT MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	52
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE IMPACT OF INVESTMENTS ON THE CREATION OF NEW JOBS	57
Shayzak R. Kholmuminov, Shukhrat Sh. Kholmuminov	
RAQAMLASHTIRISH VA YASHIL TURIZM KONSEPSIYASI ASOSIDA TURIZM SOHASINING BARQAROR RIVOJLANISHI	68
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	

RAQAMLASHTIRISH VA YASHIL TURIZM KONSEPSIYASI ASOSIDA TURIZM SOHASINING BARQAROR RIVOJLANISHI

Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, Dotsent

xaitovoxunjon@samdukf.uz

ORCID: 0009-0001-6306-6774

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning nazariy asoslari, xalqaro tajribalar va O'zbekiston sharoitidagi ustuvor strategik yo'nalishlar yoritilgan. Turizmga raqamlashtirish, diversifikatsiya, xizmat sifatini oshirish, yashil turizm va hududiy klasterlarni rivojlantirish kabi yo'nalishlar tahlil etilgan. Xalqaro tajribalarni o'rganish asosida milliy turizm industriyasining raqobatbardoshligini oshirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, innovatsion faollik, raqamlashtirish, turizm klasteri, yashil turizm, strategik yo'nalishlar, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article discusses the theoretical foundations, international experience, and priority strategic directions for enhancing innovative activity in the tourism sector of Uzbekistan. It analyzes such directions as digitization, diversification, improvement of service quality, green tourism, and the development of regional clusters. Based on the study of international experience, scientific and practical proposals have been developed to improve the competitiveness of the national tourism industry.

Key words: tourism, innovative activity, digitization, tourism cluster, green tourism, strategic directions, competitiveness.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы, международный опыт и приоритетные стратегические направления повышения инновационной активности в сфере туризма Узбекистана. Анализируются такие направления, как цифровизация, диверсификация, повышение качества услуг, зелёный туризм и развитие региональных кластеров. На основе изучения международного опыта разработаны научно-практические предложения по повышению конкурентоспособности национальной туристической отрасли.

Ключевые слова: туризм, инновационная активность, цифровизация, туристический кластер, зелёный туризм, стратегические направления, конкурентоспособность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sektorining jadal rivojlanishi, ayniqsa turizm sohasi ulkan salohiyatga ega strategik tarmoqlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Turizm faqatgina dam olish va hordiq chiqarish vositasi bo'lib qolmay, balki mamlakatlarning xalqaro maydondagi imidjini shakllantirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) hisobotlariga ko'ra, 2023-yilda global turizm daromadlari 1,5 trillion AQSH dollaridan oshib, pandemiyadan keyingi davrda eng yuqori ko'rsatkichga yetdi. Bu esa, sohada innovatsion yondashuvlarning naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Innovatsion faoliyat zamonaviy turizm industriyasining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki an'anaviy xizmatlar turizm bozorida tezda o'z ahamiyatini yo'qotmoqda, turistlarning ehtiyojlari esa kundan-kunga o'zgarib, yanada sifatli, qulay va texnologik xizmatlarga talab oshib bormoqda. Shu bois, turizmga raqamli texnologiyalarni joriy etish (AR/VR, mobil ilovalar, onlayn bron tizimlari), xizmatlarni diversifikatsiya qilish (eko, agro, gastro, sanoat turizmi), hamda yashil va barqaror turizm konsepsiyasini rivojlantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ham turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor sohaslaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli¹ Farmoni turizmni rivojlantirish, xizmatlar sifatini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5841063>

oshirish, innovatsion loyihalarni keng qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalar jalb qilish, hududiy turizm klasterlarini shakllantirish bo'yicha strategik vazifalar belgilangan. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda xalqaro standartlarga mos xizmatlarni yaratish, raqamli ekotizimni shakllantirish va turizm brendini global maydonga olib chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, turizm sohasida mavjud muammolar ham innovatsion yechimlarni talab qilmoqda. Masalan, ayrim hududlarda xizmatlar sifati yetarli darajada emas, raqamli infratuzilma to'liq shakllanmagan, ekologik turizm imkoniyatlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bundan tashqari, xalqaro bozorda raqobat kuchayib borayotgan bir paytda O'zbekiston turizm industriyasining barqaror rivojlanishi uchun innovatsion faollikni oshirish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmدا innovatsion faollikni oshirish masalasi jahon ilmiy hamjamiyatida keng o'rganilmoqda. Xususan, UNWTO (Jahon turizm tashkiloti)ning yillik hisobotlarida innovatsion texnologiyalar turizm industriyasi raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil sifatida qayd etiladi. Hisobotlarda ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalarni (onlayn bronlash, AR/VR xizmatlar, mobil ilovalar) joriy etgan mamlakatlar turizm oqimida 25–30 foizgacha o'sishga erishgan [1].

Yevropa tajribasini o'rgangan tadqiqotchilar (OECD, 2023) turizmدا innovatsion xizmatlarni joriy etish orqali hududiy iqtisodiyot diversifikatsiyasi jadallashishini, ayniqsa klasterlashuv jarayonlari turizm sohasining samaradorligini oshirishini asoslab berganlar. Masalan, Ispaniyada turizm klasterlari orqali xizmatlarning 40 foizi yangi innovatsion mahsulotlar asosida shakllantirilmoqda [2].

Mahalliy tadqiqotchilar ham turizmدا innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratishmoqda. X. D. Turg'unovning ishlarida turizm klasterlari hududiy iqtisodiy o'sish drayveri sifatida talqin etilib, ularning samarali ishlashi uchun davlat-xususiy sheriklik muhimligi ta'kidlanadi [3]. A. A. Azizov esa innovatsion turizm xizmatlari orqali nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikka ham erishish mumkinligini ta'kidlaydi [4].

So'nggi yillarda ilmiy maqolalarda "smart tourism", "digital tourism" va "green tourism" tushunchalari keng qo'llanila boshladi. Jumladan, Koreya Respublikasi tajribasida raqamli texnologiyalar va AR/VR xizmatlari asosida turizm eksportini kengaytirish bo'yicha samarali model ishlab chiqilgan [5]. Estoniya esa e-Residency dasturi orqali butun dunyo bo'ylab raqamli xizmatlarni joriy etib, turizmni davlat darajasida innovatsion ekotizimga aylantira olgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston tajribasida ham turizmدا innovatsion yondashuvlar bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. "Silk Road Samarkand" majmuasi, Buxoro va Xivadagi "smart tourism" loyihalari, hamda milliy turizm brendini yaratish tashabbuslari bu boradagi muhim yutuqlar sifatida ko'rsatib o'tiladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda turizm sohasining innovatsion faolligini oshirishning strategik yo'nalishlari va faollikni oshirish holati tahlilini o'rganish uchun bir nechta metodlar birlashtirilgan. Tadqiqot metodologiyasi empirik tahlil, solishtirma tahlil, kazuslar (case-study) va ekspert baholashlari kabi usullarga asoslanadi. Bu metodlar orqali mamlakatimizda turizm sohasida innovatsion faollik va raqobatbardoshlikni oshirish, shuningdek, uning innovatsion rivojlanishiga ta'siri chuqur o'rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Turizm sohasini barqaror rivojlantirishda hududiy klasterlashuv yondashuvi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Klaster — bu ma'lum hududda joylashgan, o'zaro iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional aloqalarda bo'lgan turizm xizmatlari ishtirokchilari yig'indisidir. Unga mehmonxonalar, transport va logistika xizmatlari, ovqatlanish obyektlari, gidlik va ekskursiya xizmatlari, madaniy meros obyektlari, mahalliy ishlab chiqaruvchilar hamda ta'lim va konsalting muassasalari kiradi.

Ilmiy adabiyotlarda turizm klasteri hududiy iqtisodiyotning o'sish drayveri sifatida talqin qilinadi. Masalan, Porterning "klaster nazariyasi"ga ko'ra, tarmoq ichidagi ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi raqobatbardoshlikni kuchaytiradi, innovatsiyalarni tezroq joriy etish imkonini beradi va xizmatlar sifatini oshiradi [7].

O'zbekiston sharoitida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Farg'ona vodiysi turizm klasterlari shakllanishi uchun eng istiqbolli hududlar hisoblanadi. Chunki ushbu hududlarda:

- boy madaniy meros va jahon miqyosida tan olingan tarixiy obidalar mavjud;
- transport va logistik infratuzilma (xalqaro aeroportlar, temiryo'l va avtomobil yo'llari) rivojlanmoqda;
- mehmonxona xo'jaligi va servis obyektlari soni yildan-yilga ortmoqda;
- xalqaro investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha imtiyozli sharoitlar yaratilmoqda.

Hududiy turizm klasterlarini shakllantirishning asosiy vazifasi – mahalliy ishlab chiqaruvchilar, transport, mehmonxona va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlarini yagona tizimga birlashtirishdan iborat. Buning natijasida ko'plab ustunliklarga erishish mumkin.



1-rasm. Hududiy turizm klasterlarini rivojlantirishning asosiy ustunliklari

Xalqaro amaliyot ham bu modelning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Ispaniyaning Kataloniya mintaqasida turizm klasterlari orqali hududiy xizmatlar zanjiri birlashtirilgan bo'lib, bu mamlakat turizmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 12 % dan ortiq darajada ushlab turishga xizmat qilmoqda.

Demak, O'zbekiston sharoitida turizm klasterlarini rivojlantirish – bu nafaqat turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish, balki hududiy iqtisodiy tizimlarni diversifikatsiya qilish va global raqobatbardoshlikni mustahkamlashning ham muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi.

Zamonaviy turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlari xizmatlar sifatini oshirish, turistlar uchun qulaylik yaratish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. "Smart tourism" tushunchasi nafaqat elektron xizmatlar, balki turizm jarayonlarining to'liq raqamli transformatsiyasini anglatadi. Bu jarayonda onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lovlar, virtual gidlar, AR/VR texnologiyalari, shuningdek, turizm axborot markazlarining mobil ilovalar bilan integratsiyasi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida "smart tourism"ni keng joriy etish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

onlayn bronlash va elektron to'lov tizimlari – 2025-yilgacha turizm xizmatlarida onlayn bronlash va to'lovlardan foydalanish ulushini 80 % gacha kengaytirish;

virtual gidlar va AR/VR xizmatlari – tarixiy obidalar, muzeylar va madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish va ularni AR/VR texnologiyalari yordamida turistlarga taqdim etish;

turizm axborot markazlarini mobil ilovalar bilan integratsiya qilish – yagona elektron platforma orqali turistik xarita, marshrutlar, bronlash, gid xizmatlari va transport integratsiyasini ta'minlash.

1-jadval. O'zbekistonda turizm "smart tourism" elementlarini joriy etish yo'nalishlari

Yo'nalish	Amaliy choralar	Kutilayotgan natijalar
Onlayn bronlash va elektron to'lov tizimlari	Mehmonxonalar, transport va muzey xizmatlarini yagona elektron platformaga ulash	Turistlar uchun qulaylik, xizmatlar tezligi va shaffofligi oshadi
Virtual gidlar va AR/VR xizmatlari	Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentdagi obidalarni 3D formatda raqamlashtirish	Turistlarning tajribasi boyiydi, yoshlar va xorijiy turistlar uchun jozibadorlik ortadi
Mobil ilovalar va axborot markazlari integratsiyasi	"Uzbekistan Tourism App" kabi yagona mobil ilova yaratish	Turistlar uchun interaktiv xarita, marshrutlar va to'lov xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengayadi

Raqamlashtirish va "smart tourism"ni rivojlantirish O'zbekistonda turizm sohasida yuqori qo'shilgan qiymat yaratadi, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtiradi va hududiy turizmni global raqobatga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, raqamli platformalar asosida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish milliy iqtisodiyotda xizmatlar eksportini oshirishga ham xizmat qiladi.

Turizm industriyasida raqobatning kuchayib borishi hududiy va milliy turizm brendlarini yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Brendlashtirish turistlarga nafaqat hududning geografik joylashuvi yoki tarixiy obidalar haqida, balki u yerdagi xizmatlar sifati, innovatsion imkoniyatlar va madaniy qadriyatlar haqida ham yaxlit tasavvur beradi.

O‘zbekiston sharoitida innovatsion marketing va brendingning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: hududiy turizm brendlarini yaratish – masalan, “Silk Road Samarkand”, “Gastro Buxoro”, “Eco Farg‘ona” kabi loyihalar orqali mahalliy turizm xizmatlarini xalqaro bozorda tanitish;

ijtimoiy tarmoqlar va global platformalarda innovatsion reklama kampaniyalari – “Instagram”, “YouTube”, “TikTok” va global turizm platformalarida videoroliklar, AR/VR asosidagi reklama mahsulotlari, interaktiv kontentlarni targ‘ib qilish;

onlayn turizm festivallari va virtual ko‘rgazmalar – turizm xizmatlari, hunarmandchilik va milliy madaniyat elementlarini virtual tarzda taqdim etish, xorijiy auditoriyani jalb qilish.

Bu yo‘nalishlar turistlar oqimini ko‘paytirish, turizm xizmatlari eksportini kengaytirish va O‘zbekistonning xalqaro imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan turizmning ekologik yo‘nalishi (yashil turizm) bugungi kunda global turizm bozorida eng dolzarb tendensiyalardan biridir. Yashil turizm nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki hududiy iqtisodiy faollikni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida yashil turizm va barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: ekoturizm obyektlarini ko‘paytirish – tog‘, milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar va rekreatsion hududlarda ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish;

mehmonxonalarda energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish – “eko-hotel” konsepsiyasini ommalashtirish, quyosh panellari, suvni tejash va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini tatbiq etish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik sertifikatlash tizimi – xalqaro “Green Tourism” va “Eco Label” standartlari asosida turizm obyektlarini sertifikatlash, shu orqali milliy turizmni global ekotizmga integratsiya qilish.

Yashil turizmni rivojlantirish orqali O‘zbekiston nafaqat tabiiy resurslarni asrab-avaylaydi, balki ekologik mas‘uliyatli turistlar oqimini ham jalb qiladi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

2-jadval. Turizm sohasida innovatsion marketing va yashil turizm yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Amaliy chora-tadbirlar	Kutilayotgan natijalar
Innovatsion marketing va brending	Hududiy brendlar (“Silk Road Samarkand”), onlayn reklama kampaniyalari, virtual ko‘rgazmalar	Turistlar oqimi ortadi, xalqaro imidj mustahkamlanadi
Yashil turizm va barqaror rivojlanish	Ekoturizm obyektlari sonini oshirish, “eko-hotel” konsepsiyasi, ekologik sertifikatlash	Ekologik muvozanat ta‘minlanadi, turizmga barqaror rivojlanishga erishiladi

Turizm sohasida innovatsion marketing va brending hamda yashil turizm va barqaror rivojlanish yo‘nalishlari o‘zaro uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Innovatsion marketing va brending:

asosiy chora-tadbirlar sifatida hududiy brendlar yaratish (“Silk Road Samarkand”), global platformalarda raqamli reklama kampaniyalari va virtual ko‘rgazmalar o‘tkazish ko‘rsatib o‘tilgan;

bu chora-tadbirlar, bir tomondan, turistlarni jalb qilishda zamonaviy kommunikatsiya kanallaridan foydalanish imkonini beradi, ikkinchi tomondan esa, O‘zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi;

kutilayotgan natija sifatida turistlar oqimining ortishi va mamlakat imidjining yaxshilanishi global turizm bozorida O‘zbekistonning brend sifatida tan olinishiga xizmat qiladi.

Yashil turizm va barqaror rivojlanish:

ekoturizm obyektlari sonini ko‘paytirish, “eko-hotel” konsepsiyasini keng joriy qilish va xalqaro ekologik sertifikatlash tizimlaridan foydalanish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan;

bu chora-tadbirlar orqali nafaqat ekologik muvozanatni ta‘minlash, balki ekologik mas‘uliyatli turistlarni jalb qilish imkoniyati kengayadi;

natijada, turizm sohasi iqtisodiy foyda bilan birga barqaror rivojlanish tamoyillarini ham o‘zida mujassam etadi.

Jadvalda ko'rsatilgan ikki yo'nalish O'zbekiston turizm sohasini transformatsiya qilishda o'zaro uyg'unlashadi: innovatsion marketing qisqa muddatli istiqbolda turistlar oqimini oshirsa, yashil turizm uzoq muddatli istiqbolda ekologik barqarorlik va xalqaro ishonchni mustahkamlaydi.

Shunday qilib, bu ikki yo'nalishning parallel rivojlanishi turizm sohasining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqarorligini ta'minlash uchun strategik ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston turizm sohasida innovatsion marketing va yashil turizm yo'nalishlari zamonaviy iqtisodiy sharoitda ustuvor strategik ahamiyat kasb etadi. Innovatsion marketing va brendingning samarali joriy etilishi milliy va hududiy turizm brendlarini xalqaro bozorda mustahkamlash, turistlar oqimini ko'paytirish va mamlakat imidjini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, global axborot maydonida raqamli reklama, virtual ko'rgazmalar va onlayn festivallar O'zbekiston turizmining jozibadorligini oshiradi.

Yashil turizm va barqaror rivojlanish yo'nalishlari esa ekologik muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va energiya tejavchi texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan bo'lib, turizm sohasi barqaror rivojlanishini kafolatlaydi. Ekoturizm obyektlarining ko'payishi va ekologik sertifikatlash tizimining joriy etilishi uzoq muddatli istiqbolda milliy turizmning xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlaydi.

Umuman olganda, innovatsion marketing qisqa muddatli davrda turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilsa, yashil turizm yo'nalishi uzoq muddatli barqaror rivojlanishning muhim kafolatidir. Shu bois, ushbu ikki yo'nalishni birgalikda rivojlantirish O'zbekiston turizmining iqtisodiy samaradorligi, ijtimoiy ta'siri va xalqaro nufuzini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNWTO (2023). *Tourism Highlights: Global Innovation in Tourism*. Madrid.
2. OECD (2023). *Tourism Trends and Policies*. Paris: OECD Publishing.
3. Turg'unov X. D. (2021). *Hududiy turizm klasterlari va ularning iqtisodiy samaradorligi*. Toshkent.
4. Azizov A. A. (2022). *Turizmدا innovatsion faoliyat va barqaror rivojlanish omillari*. Samarqand.
5. Korea Tourism Organization (2022). *Smart Tourism Strategy of Korea*. Seoul.
6. Uzbektourism.uz – O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy sayti. <https://uzbektourism.uz>
7. Porter M. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.

Proofreader: Zokir ALIBEKOV

Layout and Designer: Oloviddin Sobir ugli

2025. № 10

© When materials are reproduced, the INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY journal must be cited as the source. Authors are responsible for the accuracy of the information in materials and advertisements published in the journal. Editorial opinions may not always align with those of the authors. Submitted materials will not be returned to the editorial office.

To publish articles in this journal, you may submit articles, advertisements, stories, and other creative materials through the following links. Materials and advertisements are published on a paid basis.

You may subscribe to the journal at any time using the following details. Once subscribed, please send a screenshot or photo of your payment confirmation to our Telegram page @iqtisodiyot_77. Based on this, we will send the latest issue of the journal to your address each month.

“The journal “INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY” has been registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan from 09.10.2024 under the registration number №390637. License number: C-5669633. PNFL: 30407832680027

Our address: Tashkent city, Yunusobod district, 19th block,
House 17.



Acceptance of articles
Published every
monthly



Directions
Social, economic, political,
technological, scientific

 **Scopus || Scientific electronic journal specializing in Scopus**

CERTIFICATE NUMBER: №390637

**ORDER NUMBER ACCORDING TO
THE LICENSE REGISTER: C-5669633**

CONTACT:

-  Contact us
+998 50 737 87 88
-  Telegram channel
t.me/scopus_IST2100

 Journal official website
<https://ist-journal.uz/index.php/IST>